

NAVOYI yoki NAVOYI?

Asliyatga qaytish fursati

"Marifat" gazetasining 2024-yil 10-aprel sonida berilgan filologiya fanlari doktori, professor Nusratullo Jumaxo'janing "Navoiy" taxallusi imlosi va badiiy ma'no miqyoslari" sarlavhali maqolasi juda katta qiziqish bilan o'qib chiqildi. Kamina Hazrat Navoiy g'acalarini olmon tilga tarjima qilganman, bu tarjimalarim O'zbekistonda ikki marta, Olmoniyada uch marotaba nashr etilgan. Ayni paytda Navoiyning shoh asari "XAMSA" va "MU-NOJOT" tarjimalari ustida bosh qotirmoqdam. Shu paytgacha 300 ga yaqin o'zbekcha-olmoncha, yana shuncha olmoncha-o'zbekcha tarjimalarim vatanimiz va xorijda chop etilgan.

Gazetada ko'tarilgan mazkur muam-mo o'tgan asrning 70-, 80-, 90-yillarida mamlakatimiz ilmiy va ommaviy axborot vositalarida qayta-qayta yoritilgan. Ammo ilmiy yechimini allaqachon topgan muam-moni amalga tatbiq etish masalasi esa hamon ko'ndalang turibdi. Taxallusning "Navoiy" shakli xato, "Navoiy" shakli esa to'g'ri ekanligini crimmasdau shu so-haning "jarrohi", tajribali va tan olingan navoiyshunos olim N.Jumaxo'ja yana bir marta har tomlarima isbotlab bergan ("Chumchuq so'ysa ham, qassob so'ysin"

Ana shu tarjimalarda mazmunga emas, muallif niyati va asar ma'olarini ham qayta yaratish mas'uliyatini unu-masdan ustozimiz G'aybullat Salomov, navoiyshunos olimlar Ibrohim Haqqul, Sultonmurod Olim, Karomat Mulla-xo'jayeva, Zuhridin Isomiddinov, Nusratullo Jumaxo'ja kabi filologlar-ga murojaat qilishimga to'g'ri keladi. Navoiyshunos bo'lmagan-da, ularning professional fikrlarini o'rganib boraman. Haqiqatan ham, ushbu maqolada navoiy-shunoslik va inlomizdagi dolzarb masala yoritilgan. Navoiy taxallusining to'g'ri yozilishini joriy etish muammosi bir asik tarixga ega. Ushbu muammo yuzasidan ne-ne olimlar bosh qotirishgan. Shu o'rinda aslida huquqshunos bo'lgan akade-mik Akmal Saidov, asli fizik-matematik bo'lgan akademik Abdulla A'zam kabi nofilologik fanlar vakillarining bizning filologiya fanimiz bo'yicha qilayotgan izlanishlarini o'qib hayratdan yoqa ush-layman; ularni asli kasbi filolog bo'lgan

ko'plab mutaxassislarga ibrat bo'ladigan, tafakkur qudrati va miyosiy komillikka in-taylqayotgan insonlar deb bilaman.



degan xalq maqoli bor-ku?!). Bandan ortiq darajada isbotlashga hojalar topi-lar-u, biroq chitoy yo'qda. Xo'sh, nega unda bu muammo joyida deysinib turishi kerak? Maqola oxirida to'g'ri taklif beril-gan: "Tilimiz, adabiyotimiz, va umuman, ma'naviyatimizda bunga o'sxash adolati yechimini topib, so'nggi nuqtani qo'yadi-gan muammolar ko'p. Hozir shu so'nggi nuqtani qo'yadigan davlat tashkilotimiz bor. Ayni shunday vazifa, nazarimizda, Davlat tilini rivojlatirish departamenti, Vazirlar Mahkaması huzuridagi Atama-lar komissiyasi zimmasidadir. Atamalar komissiyasi tadqiq etilgan muammoni xo-lis ekspertlar yordamida o'rganib, yakiniy qarorni chiqarib, matbuotda e'lon qilsa, masala qonuniy yechimini topgan bo'lar-di". Professor Nusratullo Jumaxo'ja bun-day takliflarni o'nin yillarda ham ilmiy konferensiyalar, ilmiy to'plamlar, ilmiy monografiyalari va matbuot sahifalarida ko'p marotaba tavsiya etganligidan xabar-dorman.

Bizningcha, bu to'qib chiqarilgan yoki osmondan olingan xulosa emas. Real, hayotiy, tarixiy tajribadan kelib chiqqan taklif. Boz ustiga, mustaqillik davri tarix-iy tajribasidan kelib chiqqan fikr bu. Axir, mustaqillik davrining dastlabki yillari-da ta'is etilgan Atamashunoslik qo'mi-tasi ham bor-ku! Muallif taklifida ana shu qo'mitaning tarixiy, amaliy tajribasi ko'zda tutilgan. Ulug' yozuvchi Odil Yo-qubov va uning o'rinbosari faol tilshunos olim Habibulla Bektemirov rahbarligidagi Atamashunoslik qo'mitasi shunday munozarali termin va atamalarni o'z sho'balari-da o'rganib, muhokama qilardi hamda tan-langan namunalarni matbuotda e'lon qilib, xalqning fikrini olardi, so'ng ko'pchilik

"Marifat" ga aks sado



Biz domla tomonda

Navoiyshunos olim Nusratullo Jumaxo'janing mazkur maqo-lasi, 2024-yilning 9-Fevralida "Jaddi" gazetasida e'lon qilingan fizika-matematika fanlari doktori Abdulla A'zamning "Navoiy yo-m bo'lsa, sen yaxshi bo'!" sarlavhali maqolasiga raddiyasi sifa-ti-da e'lon qilingan.

Biz ushbu raddiyaga yuz foiz qo'shilmamiz va Nusratullo Jumaxo'ja domla bildirgan fikrlarni qo'lab-quvatlaymiz. Chunki, olim til va adabiyot fanlariga haqiqiy bilimdoni. Professor Nusratullo Ju-maxo'janing fikrlari shunchaki quruq va sayoz bilimlarga tayanmay-di. Olim maqolada bahs yuritilayotgan mavzuga doir o'nlab hayotiy misollarni keltiradi, mavzuni inlo, orfografik, ma'no va mazmun ji-hatidan ilmiy asoslaydi. Har bir fikri asosli va isbotli. Bizning ushbu fikrlarimiz, olimning inlo va orfografiyaga doir 1998-yilda "Sharq" nashriyotida chop etilgan "Istiqlol va ona tilimiz" nomli kitobi, 4 marta nashr etilgan "O'zbek adabiyoti tarixi (XVI-XIX asr Yarmi)" nomli darsligi, "Qaro ko'zum" g'azali tadqiqi" nomli monografiyasi

("Muharrir" nashri-yoti, T., 2021-yil), "Satrlar silsilasidagi selir" monografiyasi (ANORBOOKS, T. 2023) va qator ilmiy to'plamlarda o'lon qilingan maqolalarida ham o'z isbotini topgan.

Hazrat Navoiy taxallusi yoki uning ijodi haqida fikr yaratish uchun nafaqat fizika-matematika fanlari doktori, balki adabiyot-shunos olim bo'lish ham kamil qiladi. Filologiya fanlari doktori, professor Nusratullo Jumaxo'ja o'zining uzog yillik ilmiy faoliyati davomida faqat navoiyshunoslik ilmi bilan mashg'ul bo'lganligidan xabardorman. Ana shu asosga ko'ra olimning ayni maqolaga raddiya yozishi tabiiy va ma'nun haqiqiligin ifodasidir.

Azimjon DAVRON,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek til va adabiyoti universiteti katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha ta'rifata doktori (PhD)

Chindan ham mamlakat taraqqiyoti kaliti o'qituvchilar qo'lida

Xurram RAHIMOV,
Olmon-O'zbek ilmiy jamiyati raisi, O'JTU professori, tarjimon va tarjimashtunos

Angren universiteti rektori K.Sindorov-ni "Ma'rifat" gazetasida chop etilgan mam-lakatimizdagi ta'lim muammolariga bag'ish-langan maqolasi ko'pchilikning e'tiborini qozondi. Haqiqatan ham, mamlakat taqdiri ta'lim sistemasi, o'qituvchilarga, ularning ortidan ergashgan talabalarining qanday mu-



"Ustozing aytaveradi" demang...

eradi", "sen bilan ishi bo'lmasin" kabi iboralarni qayta-qayta tak-rorlab, bolalarining ongiga singdiravasi o'qituvchi va o'quvchi o'tasidagi ziddiyatlar ildiz otib boraveradi.

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, o'tgan ulug'larimiz, ota-bobalarimiz ustoz va muallimlarning haqqini yaxshi bilgan-lar, ularning qadri uchog'li boland ekanini taren anglaganlar. Va shunga ko'ra munosabati qiziqar. Imom A'zam Abu Hanifa rahmatullohi alayh shunday deganlari rivoyat qilinadi: "Ustozim Hammodning hurmati uchun uning uy tomoniga o'g'irimi aziz-maganman. Holbuki, uchun uyli bilan mening uyim orasida yetti-ta ko'cha bor edi. Ilmmod vaftiq etgandan so'ng qachon namoz o'qisam har safar, albatta, ota-onamga qo'shib, unga ham Ollohdan mag'firat so'ragaman. (Nafaqat u) Balki, kimden nimadir o'rgan-gan bo'lsan yoki kimdir menga nimadir o'rgatgan bo'lsa, albatta, o'sha kishilar uchun ham doim Ollohdan mag'firat so'rayman."

Ustozlar hurmati, uning melmati qadri haqida gap borgan-da hazrat Alisher Navoiyning bu baytardian ortiq bir so'z aytmoq mushkuldir:

Hoa yu'lida kim senga bir harf o'qutishni namo ila.
Aylamak bo'lmis adab o'ning haqin yuz gani ila.

Hayt mag'firatni yaxshi tushungan insongina ustozga hurmat naqalar ulug' ekanligini yaxshi anglaydi.


Dagan Prezidentimiz o'qituvchiga yuksak e'tibor ko'rsatib, "Sizlar dunyodag eng bebaho boylik va boyli merosi yaratish, uni xalqimizga, unib-o'sib kelayotgan yosh avlodimizga beravol yetkazishi yo'lida chinamok fidokil ko'rsatib melmali qilayotgan ulug' insonlariz", deya ta'kidlaygan bejir emas. O'z o'quvchisi uchun jonini fido qilish im beradigan, uning kelajagi haqida qa-yug'uradigan inson dastur albatta ulug'lanishi lozim. Zero, im ilmi, ziyolilar ulug'langan yurt yuksalishida davom etadi.

Fargat ulMAROVA,
Yangiyo'q tumanidagi 331-maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Hukumat qarori kerak

Professor Nusratullo Jumaxo'janing "Navoiy taxallusi imlosi va badiiy ma'no miqyoslari" sar-lavhali maqolasida ulug' muvaffakirlik Alisher Navoiy taxallusining to'g'ri imlosi va uning badiiy ma'no ifodalash imkoniyatlarini boyligi to'liq isbotlangan. Gap faqat yechimi topilgan muammoni amal-ga oshirishda qoldi, xolos.

Masalani tilshunoslik nuqtayi nazaridan isbot-lashga ham son mingta misol keltirish mumkin. Masalan, qalay-qalayi, makka-makkayi, kalla-kallayi, havo-havo, rasvo-rasvo, fido-fido, shar-do-shaydoyi, xudo-xudoyi, sazo-sazoyi, sipo-sipoyi, saho-sahroyi, xitoy-xitoyi; Yoki: asab-asabiy, ki-tob-kitobiy, harb-harbiy, g'arb-g'arbiy, kash-kash-iy, uslub-uslubiy, abad-abadiy, tanqit-tanqidiy, ijod-ijodiy, milod-milodiy, xitoy-xitoyi, mulk-mulk-iy, azal-azaliy, amal-amaliy, asl-asliy, shakl-shakliy, nasi-nasliy, aql-aqliy, odam-odamiy, nazm-nazmiy, doim-doiimiy, ilm-ilmiy, umum-umumi, din-diniy, taxmin-taxmini, on-oniy, hayvon-hayvoniy, vij-don-vijdoniy, inson-insoniy, mazmun-mazmuniy, naz-ar-nazariy, bashar-bashariy, hijr-hijriy, zohir-zohiriy, devor-devoriy, mantiq-mantiqiy, iloh-ilohiy, ruh-ruhiy va hokazo.



deb yozib o'rganib qolganmiz. Lug'atda ham shunday qabul qilingan. Men nuqti "tovishi" yozib qo'yaman. Chunki so'zning kelib chiqishini bilaman. Keyin, qo'ldalarga mos bo'lsin deb to'g'rib chiqaman. "U'ri" va "urush" ni ko'pchilik farqlamaydi ham. Tilshunos-likda hal qilinishi kerak bo'lgan shunaaq ko'p masala-lar borki...

Nusratullo Jumaxo'janing fikri yuz foiz to'g'ri. Biz olim bilan yakdilmiz. Ammo mingta akademik buni tasdiqlaygan bilan, qabul qilingan, urfa kirgan birgina so'zni o'zgartirishga hech kim jarra et qilmay-di. Xususan, shahar nomini, universitetimiz nomini va bobomizning dunyoga tanilgan mashhur taxalluslarini o'zgartirish uchun hukumat qarori kerak bo'lad.

Shehobiddin ODILOV,
filologiya fanlari nomzodi

Karmana tumanidan Toshkent tomonga o'tayotib, ko'zim katta e'lon taxtasiga tushdi. Mening diqqatim o'lon mazmun emas, uning ostidagi manzili tortdi. Unda "Navoiy shahri, falon ko'cha, falon uy" shaklida yozilgan so'zlar bor edi.

"Tavba, - deb o'yladim, - o'zi yashaydigan viloyat, shahar nomini ham to'g'ri yozolmaydigan odamlar bor ekan-da? Savodsizlik ham shu qadar bo'ladimi?!"

Yaqinda filologiya fanlari doktori, profes-sor Nusratullo Jumaxo'janing "Qaro ko'zum..." g'azali tadqiqi" deb nomlangan salmoqi (308 bet)

yoridi va muammoni to'g'ri hal etdi... Adabiyot-shunos olim N.Jumaxo'ja 1990-yillari O'zbekis-ton matbuotida e'lon qilingan qator maqolalarida va "Istiqlol va ona tilimiz" kitobidagi "Navoiy" taxallusining badiiy ma'no miqyoslari va imlosiga doir" sarlavhali maqolasida ("Sharq", T., 1998) taxallusining to'g'ri yozilishini isbotladi". "Xalq

Asliyatga asosan yozilgan

va ko'rkam kitobini olib, birinchi betini o'qis-am, "Bir g'azal haqida bir kitob" satridan so'ng "Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligiga bag'ishlanadi" degan so'zlarni o'qib, yana bir marta "tavba..." deyishimga to'g'ri keldi.

Taniqli adabiyotshunos olim bu borada hay-ron qoladiganlar uch e-mailigini inobahat o'lon, monografiyaning 3-betidagi so'zboshida shunday izoh bergan: "Ulug' muvaffakir Nizomiddin Mir Alisherning taxallusi asliyatga muvofiq "Navoiy" shaklida yozildi". O'zbek milliy uyg'onish davri adabiyotining yirik namoyandasi Abdurafiq Fitrat o'z asarlarida taxallusini shunday qo'llagan, asar-lardagi taxallus imlosi zamonaviy nashrlarda ham aslicha chop etildi. Professor Ilamid Sulay-mov "Alisher Navoiy nomining yozilish shakllari va imlosi haqida" g' maqolasida masalaga man-bashunos sifatida yondashib, "Navoiy" shaklidagi g'alati mashhurning kelib chiqishi tarixini batafsil

so'zi" gazetasi va "Mushum" jurnalida bir mud-dat taxallusning shu imlosiga o'ildi. Taxallusini qanday yozish haqida biror qaror qabul qilinma-gan bo'lsa-da, jamiyat massas qarorga chitoy sezdi shekilli, yana xato imloga qaytdi. Shunday pishib yetilgan masalalar to'g'risida uzil-kestil qaror qilib, un matbuotda chop ettirib, irosini ta'minlashni Davlat tilini rivojlatirish departa-menti o'z zimmasiga olsa, yaxshi bo'lardi".

Ushbu kitobni o'qish asnosida diqqat qilsangiz, unga maqolasi kiritilgan o'nlab fan nomzodidan tortib fan doktori-yu akademika-chi hammasi, jumladan, O'zbekiston Qahramoni, Xalq shoiri Erkin Vohidov ham ulug' shoirning taxallusini Alisher Navoiy shaklida yozishgan ekan. Demak, e'lon bergan karmanalik tadbirkordan bena behuda xafa bo'lgan ekanman.

Komil JO'RAYEV,
yozuvchi